ISSN 1076-1077

PEDAGOGIKA

NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ILMIY-NAZARIY
VA METODIK JURNAL

3/2026

- PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA, PEDAGOGIK INNOVATIKA
- MATEMATIKA VA TABIIY-ILMIY FANLAR TA'LIMI
- IJTIMOIY VA GUMANITAR FANLAR TA'LIMI
- SAN'AT VA JISMONIY MADANIYAT TA'LIMI
- XORIJIY TA'LIM TAJRIBALARI
- TA'LIMI TIZIMI YANGILIKLARI
- FAN VA TA'LIM FIDOYILARI
- MAKTABGACHA TA'LIM

PEDAGOGIKA

ILMIY-NAZARIY VA METODIK
JURNAL

3/2026

Bosh muharrir:
Umarova Xilola Uktamovna

Maxmudov Abduxalim Xamidovich
(bosh muharrir o‘rinbosari)

Tahrir hay’ati:
Djurayev Risbay
Ibraimov Xolboy
Abdullayeva Barno
Abdullayeva Shaxzoda
Aliev Seyxun
Djurayev Dusmurod
Jabbarov Zarifboy
Ibragimova Gulnora
Kadirova Fatima
Kamilova Nodira
Karimova Nozima
Madjidova Dildora
Medetova Raushan
Muslimov Narzulla
Safarova Roxat
Tojiboyeva Xilolaxon
Xakimova Muxabbat
Xodjayev Begzod

Muassis – Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti. Jurnalda pedagogika, psixologiya, o‘qitishning metod va texnologiyalariga oid ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik maqolalar o‘zbek va rus tillarida chop etiladi.

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2014-yil 26-maydagi 02-004-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan va unga O‘zbekiston Respublikasi Milliy kitob palatasining 2008-yil 30-iyundagi 511/S shartnomasi asosida Davriy nashrlarning Xalqaro standartlar (ISSN) – 2010-5320 raqami taqdim etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya Komissiyasi rayosatining 2013-yil 30-dekabrdagi 201/3-sonli qarori bilan ro‘yxatga olingan.

© “Pedagogika” jurnali, 2026

PEDAGOGIKA

SCIENTIFIC-THEORETICAL AND METHODICAL JOURNAL

3/2026

CHIEF EDITOR
Umarova Xilola Uktamovna

Maxmudov Abduxalim Xamidovich
(deputy editor-in-chief)

EDITORIAL BOARD:
Djurayev Risbay
Ibraimov Xolboy
Abdullayeva Barno
Abdullayeva Shaxzoda
Aliev Seyxun
Djurayev Dusmurod
Jabbarov Zarifboy
Ibragimova Gulnora
Kadirova Fatima
Kamilova Nodira
Karimova Nozima
Madjidova Dildora
Medetova Raushan
Muslimov Narzulla
Safarova Roxat
Tojiboyeva Xilolaxon
Xakimova Muxabbat
Xodjayev Begzod

The founder: National Pedagogical University of Uzbekistan named after Nizami.

The journal publishes scientific theoretical and methodological articles in Uzbek and Russian English languages in the fields of pedagogics, psychology, teaching methods and technologies. The journal has been certified under № 02-004 on the state registration of the mass media from the Tashkent Press and Information Administration as of May 26, 2014 and was awarded the international standard number (ISSN) - 2010-5320 of periodical journals on the basis of the 511/S contract from the National Book Chamber of the Republic of Uzbekistan. The journal has been registered by the Presidium of the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under № 201/3 as of December 30, 2013.

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MADANIY MEROS NAMUNALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Shomurodov Jamshid Olimboy o'g'li, *Oriental universiteti Uzluksiz ta'lim pedagogikasi kafedrasi dotsenti, p.f.f.d., PhD*

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida madaniy meros namunalaridan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari tahlil qilingan. Ta'lim jarayoniga madaniy meros namunalarini tadbiq qilishning samarali metodlari va zamonaviy pedagogik texnologiyalari yoritilgan. Shuningdek, madaniy meros namunalaridan foydalanish samaradorligini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligining shaxs rivojiga ta'siri hamda madaniy meros namunalarining talabalarda ma'naviy-axloqiy, estetik va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi o'rni yoritilgan.

Tayanch so'zlar: *madaniy meros, pedagogik shart-sharoitlar, ta'lim jarayoni, pedagogik texnologiyalar, aksiologik yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, shaxs rivoji, milliy qadriyatlar.*

Аннотация. В данной статье проанализированы научно-педагогические основы использования образцов культурного наследия в высших образовательных учреждениях. Освещены эффективные методы и современные педагогические технологии внедрения образцов культурного наследия в образовательный процесс. Кроме того, раскрыты педагогические условия, обеспечивающие эффективность использования образцов культурного наследия, влияние гармонии национальных и общечеловеческих ценностей на развитие личности, а также роль образцов культурного наследия в формировании духовно-нравственных, эстетических и профессиональных компетенций у студентов.

Ключевые слова: *культурное наследие, педагогические условия, образовательный процесс, педагогические технологии, аксиологический подход, компетентностный подход, развитие личности, национальные ценности.*

Abstract. This article analyzes the scientific and pedagogical foundations of using cultural heritage samples in higher education institutions. Effective methods and modern pedagogical technologies for implementing cultural heritage samples into the educational process are highlighted. Additionally, the pedagogical conditions ensuring the effectiveness of using cultural heritage samples, the influence of the harmony of national and universal values on personal development, and the role of cultural heritage samples in forming spiritual, moral, aesthetic, and professional competencies in students are highlighted.

Key words: *cultural heritage, pedagogical conditions, educational process, pedagogical technologies, axiological approach, competency-based approach, personal development, national values.*

Kirish. Yangi O'zbekiston sharoitida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uni milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligida rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o'z nutqida yosh avlodni milliy o'zlikni anglagan, yuksak ma'naviyatli va keng dunyoqarashga ega shaxs sifatida tarbiyalash zarurligini alohida ta'kidlab kelmoqda[1]. Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lim muassasalarida madaniy meros namunalaridan samarali foydalanish nafaqat ta'lim mazmunini boyitish, balki talabalarda tarixiy tafakkur, milliy g'urur va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishning muhim omili sifatida dolzarblik kasb etadi. Ayniqsa, zamonaviy pedagogik yondashuvlar sharoitida madaniy merosni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish, uning tarbiyaviy va didaktik imkoniyatlarini ilmiy asosda ochib berish hamda ushbu jarayonni samarali tashkil etuvchi pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash muhim ilmiy vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

Asosiy qism. Pedagogik nazariyada inson rivojining ijtimoiy-madaniy shartlanganligi L.Vygotskiy tomonidan asoslangan bo'lib, unda ta'lim madaniy vositalar orqali amalga

oshadigan faoliyat sifatida talqin etiladi [2]. Bu yondashuvga ko‘ra, til, ramzlar, an’analar va urf-odatlar shaxs tafakkurining shakllanishida asosiy rol o‘ynaydi. Oliy ta’lim jarayonida madaniy meros namunalaridan foydalanish aynan shu vositalar orqali talabaning kognitiv va emotsional rivojini qo‘llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, bilimni faol o‘zlashtirish g‘oyasi

Sharq mutaffakkiri Abu Nasr Farobiy inson kamolotini jamiyat va madaniyat bilan bog‘liq holda talqin qilib, bilim va tarbiyaning uyg‘unligini asoslab bergan. Uning fikricha, mukammal shaxsni tarbiyalashda ilm bilan bir qatorda axloqiy qadriyatlar ham hal qiluvchi ahamiyatga ega[3]. Bu g‘oya madaniy merosdan foydalanish orqali talabalarda nafaqat bilim, balki ma’naviy-axloqiy sifatlarni ham shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi. Ibn Sino ta’lim-tarbiya jarayonida insonning psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarurligini alohida qayd etgan. Uning qarashlarida bilish va tarbiya uyg‘unligi, shaxsning ichki dunyosini rivojlantirish muhim o‘rin tutadi[4]. Madaniy meros namunalari aynan shu ichki dunyoni boyitish, emotsional va estetik sezgirlikni rivojlantirish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Milliy pedagogik tafakkurda Abdulla Avloniy ta’limni milliy qadriyatlar asosida tashkil etish g‘oyasini ilgari surib, tarbiyani «hayot-mamot masalasi» sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, tarbiya millatning ma‘naviy merosiga tayangan holda olib borilgandagina samarali bo‘ladi [5]. Bu yondashuv bugungi kunda oliy ta’lim tizimida madaniy merosdan foydalanishning konseptual asoslaridan biri sifatida xizmat qilmoqda. Shu tarzda, madaniy meros namunalaridan foydalanish ta’lim jarayonida integrativ, aksiologik va kompetensiyaviy xarakter kasb etadi. U talabaning bilim olish faoliyatini faollashtiradi, uning qadriyatlar tizimini shakllantiradi va kasbiy tayyorgarligini mustahkamlaydi. Madaniy meros bu jarayonda nafaqat axborot manbai, balki tarbiyaviy, estetik omil sifatida namoyon bo‘lib, shaxsning o‘zligini anglashiga xizmat qiladi.

Ta’lim jarayoniga madaniy merosni integratsiya qilish o‘quv mazmunini milliy qadriyatlar, tarixiy xotira, xalq pedagogikasi, badiiy-estetik tafakkur va ijtimoiy tajriba bilan boyitishga qaratilgan murakkab pedagogik jarayondir. Bunda madaniy meros faqat qo‘shimcha axborot manbai sifatida emas, balki talabalarning kasbiy, ma’naviy, kommunikativ, estetik va aksiologik kompetensiyalarini rivojlantiruvchi didaktik material sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli madaniy meros namunalarini oliy ta’lim jarayoniga kiritish aniq metodik yondashuv, maqsadga yo‘naltirilgan texnologik tashkil etish va pedagogik natijadorlikni baholash mezonlariga tayangan holda amalga oshirilishi lozim. Madaniy merosni ta’lim mazmuniga integratsiya qilishda fanlararo yondashuv muhim metodologik asos vazifasini bajaradi. Chunki, xalq og‘zaki ijodi, mumtoz adabiyot, tarixiy manbalar, milliy san’at, urf-odat va an‘analar faqat bitta fan doirasida emas, balki pedagogika, psixologiya, tarix, adabiyot, falsafa, san‘atshunoslik va madaniyatshunoslik bilan uzviy aloqada o‘rganiladi [6]. Masalan, pedagogika fanida xalq tarbiyasi tajribasi tahlil qilinsa, adabiyot fanida Alisher Navoiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlarning ma’naviy-axloqiy qarashlari yoritiladi; tarix fanida esa milliy davlatchilik, ilm-fan va ma’rifat taraqqiyoti bilan bog‘liq manbalar o‘rganiladi. Bunday integratsiya talabalarda bilimlarning parchalangan emas, balki yaxlit tizim sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Oliy ta’lim muassasalarida madaniy meros namunalarini talabalarga taqdim etishda muammoli ta’lim metodi alohida ahamiyatga ega. Ushbu metod orqali talabalarga tayyor bilim berilmaydi, balki ularni muayyan tarixiy, ma’naviy yoki pedagogik muammoni mustaqil tahlil qilishga yo‘naltiriladi. Masalan, «Nima uchun xalq maqollarida tarbiya, mehnat, halollik va sabr qadriyatlari ustuvor o‘rin egallaydi?», «Sharq mutafakkirlarining komil inson haqidagi qarashlari zamonaviy oliy ta‘limda qanday ahamiyat kasb etadi?», «Madaniy meros vositasida talabalarda fuqarolik mas’uliyatini qanday shakllantirish mumkin?» kabi savollar talabalarning analitik tafakkurini faollashtiradi. Bu jarayonda madaniy meros materiali oddiy ma’lumot emas, balki ilmiy izlanish, bahs-munozara va

pedagogik xulosa chiqarish manbaiga aylanadi. Interfaol metodlardan foydalanish madaniy merosni ta'lim jarayoniga samarali singdirishning muhim vositalaridan biridir. «Aqliy hujum», «Klaster», «Insert», «B-B-B», «Venn diagrammasi», «Debat», «Akvarium», «Keys-stadi» kabi metodlar orqali talabalar madaniy meros namunalarini mustaqil o'rganadi, ularni zamonaviy pedagogik muammolar bilan bog'laydi va o'z munosabatini asoslab beradi. Masalan, «Keys-stadi» metodida talabalarga milliy qadriyatlar bilan bog'liq tarbiyaviy vaziyat beriladi va ular ushbu vaziyatni xalq pedagogikasi, Sharq allomalari qarashlari yoki zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida hal etadilar. Natijada talabalarda nafaqat nazariy bilim, balki kasbiy-pedagogik qaror qabul qilish ko'nikmasi ham rivojlanadi.

Loyiha metodi madaniy merosni o'rganishda yuqori samaradorlikka ega bo'lgan texnologiyalardan hisoblanadi. Bu metod talabalarni mustaqil izlanish, manbalar bilan ishlash, tahlil qilish, natijalarni taqdim etish va ilmiy xulosa chiqarishga o'rgatadi. Talabalar «O'zbek xalq maqollarida tarbiya g'oyalari», «Alisher Navoiy asarlarida komil inson talqini», «Milliy urf-odatlarning tarbiyaviy imkoniyatlari», «O'zbek xalq ertaklarida axloqiy tarbiya masalalari» kabi mavzularda loyiha ishlarini bajarishlari mumkin. Bunday loyihalar madaniy merosni nazariy o'rganish bilan cheklanmay, uni amaliy, tadqiqiy va ijodiy faoliyatga aylantiradi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi madaniy merosni jamoaviy tahlil qilish, fikr almashish va ijtimoiy muloqot orqali o'zlashtirish imkonini beradi. Talabalar kichik guruhlarda xalq og'zaki ijodi namunalarini tahlil qiladi, tarixiy shaxslar faoliyatini o'rganadi, madaniy qadriyatlarning zamonaviy ta'limdagi ahamiyati yuzasidan umumiy xulosalar ishlab chiqadi. Bu jarayonda talabalarda kommunikativ kompetensiya, hamkorlik madaniyati, ijtimoiy mas'uliyat va o'z fikrini asoslab berish ko'nikmalari rivojlanadi. Madaniy merosdan foydalanishda ekskursiya va muzey pedagogikasi texnologiyalarining o'rni ham katta. Muzey, tarixiy obida, ziyoratgoh, madaniyat markazi, teatr va san'at galereyalariga tashkil etilgan o'quv ekskursiyalari talabalarning nazariy bilimlarini bevosita madaniy muhit bilan bog'laydi. Bunday faoliyat talabada tarixiy xotira, estetik idrok, milliy g'urur va madaniy mas'uliyat hissini shakllantiradi. Ekskursiyadan keyingi tahliliy suhbat, yozma refleksiya yoki loyiha taqdimoti esa, olingan taassurotlarni ilmiy-pedagogik xulosaga aylantirish imkonini beradi.

Ta'lim jarayonida madaniy merosni integratsiya qilishning muhim texnologiyalaridan yana biri refleksiv ta'limdir. Refleksiya talabaning o'z fikri, hissiy munosabati, qadriyatlari va o'quv tajribasini anglashga yo'naltiriladi. Madaniy meros namunalarini o'rganishdan so'ng talabalarga «Ushbu meros namunasi mening kasbiy qarashlarimga qanday ta'sir ko'rsatdi?», «Bu qadriyatni kelajakdagi pedagogik faoliyatimda qanday qo'llashim mumkin?», «Mazkur madaniy tajribaning zamonaviy ta'lim uchun ahamiyati nimada?» kabi savollar berilishi ularning shaxsiy va kasbiy o'zini anglash jarayonini faollashtiradi.

Oliy ta'lim muassasalarida madaniy merosdan samarali foydalanish tasodifiy yoki epizodik faoliyat emas, balki aniq ilmiy asoslangan, tizimli tashkil etilgan pedagogik jarayonni talab qiladi. Bu jarayonning natijadorligi, avvalo, ta'lim muhitida yaratilgan pedagogik shart-sharoitlarga bog'liq bo'lib, ular mazmun, metodika, texnologiya, subyekt-lararo hamkorlik va baholash tizimining uzviy uyg'unligida namoyon bo'ladi. Madaniy merosdan foydalanishning samaradorligi, eng avvalo, ta'lim mazmunining maqsadga yo'naltirilgan holda qayta loyihalanishi bilan belgilanadi. O'quv dasturlariga madaniy meros elementlarini tasodifiy qo'shish emas, balki ularni fanlar kesimida tizimli integratsiya qilish muhimdir. Bu jarayonda madaniy meros namunalarining ilmiy ishonchliligi, tarbiyaviy salohiyati, talabalarning yosh va kasbiy xususiyatlariga mosligi, hamda o'quv maqsadlariga muvofiqligi hisobga olinishi zarur. Mazmuniy integratsiya talabalarda bilimlarning yaxlit tizimini shakllantirib, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lash imkonini beradi. Mazkur jarayonning samaradorligini ta'minlovchi muhim shartlardan yana biri

o‘qituvchining metodik kompetensiyasidir. Pedagog madaniy merosni nafaqat bilishi, balki uni didaktik jihatdan qayta ishlay olishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirishi lozim. Bu jihat Lev Vygotskyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish haqidagi qarashlari bilan uyg‘un bo‘lib, ta’limning madaniy vositalar orqali amalga oshishini taqozo etadi. O‘qituvchi ushbu vositalarni talabaning bilish faoliyatiga moslashtira olgandagina madaniy meros haqiqiy pedagogik resursga aylanadi.

Aksiologik yo‘naltirilgan ta’lim muhitini yaratish ham muhim shartlardan biridir. Madaniy merosning asosiy kuchi undagi qadriyatlar tizimida mujassam bo‘lib, bu qadriyatlarni talabalarning shaxsiy pozitsiyasi bilan bog‘lash pedagogik jarayonning asosiy vazifasiga aylanadi. Bu borada Sharq mutafakkirlarining qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Abu Nasr al-Farabi inson kamolotini bilim va axloqiy tarbiyaning uyg‘unligi orqali ta’minlash zarurligini ta’kidlagan. Bu g‘oya madaniy merosdan foydalanishda talabaning faqat bilimi emas, balki uning ma’naviy dunyosini rivojlantirish zarurligini asoslaydi.

Aksiologik yondashuv madaniy merosni ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning mazmuniy asosini tashkil etadi. Chunki, madaniy merosning asosiy pedagogik kuchi undagi qadriyatlar tizimida namoyon bo‘ladi. O‘zbek xalqining madaniy merosida insonparvarlik, ota-onaga hurmat, ustozga ehtirom, ilmga intilish, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, bag‘rikenglik, halollik va mas’uliyat kabi qadriyatlar markaziy o‘rin egallaydi. Ta’lim jarayonida ushbu qadriyatlarni faqat bayon qilish emas, balki talabalarning shaxsiy pozitsiyasi, kasbiy qarashlari va hayotiy munosabatlari bilan bog‘lash muhimdir. Shu sababli esse yozish, refleksiv kundalik yuritish, bahs-munozara tashkil etish, qadriyatli vaziyatlarni tahlil qilish kabi usullar samarali hisoblanadi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv ham muhim pedagogik shart hisoblanadi. Har bir talaba madaniy merosni o‘ziga xos tarzda qabul qiladi va talqin etadi. Shu sababli ta’lim jarayonida individual yondashuvni ta’minlash, refleksiya, esse, ijodiy topshiriqlar orqali talabaning shaxsiy munosabatini shakllantirish zarur. Bu yondashuv Jean Piagetning bilimning subyektiv konstruksiyasi haqidagi qarashlariga mos keladi, chunki bilim talaba tomonidan faol ravishda quriladi. Madaniy merosdan foydalanishda hamkorlikka asoslangan ta’lim muhitini yaratish ham samaradorlikni oshiradi. Talabalarning guruhlarda ishlashi, fikr almashishi, umumiy xulosalar ishlab chiqishi ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantiradi. Bu jarayon talabaning nafaqat bilimini, balki ijtimoiy faolligini ham oshiradi. Shu bilan birga, madaniy merosni jamoaviy tahlil qilish orqali turli qarashlar va talqinlar uyg‘unlashadi.

Xulosa. Madaniy merosdan samarali foydalanishni ta’minlovchi pedagogik shart-sharoitlar kompleks xarakterga ega bo‘lib, ular mazmuniy, metodik, texnologik, aksiologik va tashkiliy omillarning o‘zaro uyg‘unligiga asoslanadi. Ushbu shart-sharoitlar ta’lim jarayonini nafaqat bilim berishga, balki shaxsni ma’naviy, madaniy va kasbiy jihatdan rivojlantirishga yo‘naltiradi. Natijada, madaniy meros oliy ta’lim tizimida samarali pedagogik vosita sifatida o‘zining to‘liq imkoniyatlarini namoyon etadi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - T.: O‘zbekiston, 2021. - 464 b.
2. Выготский Л. Мышление и речь. - М.: Педагогика, 1999. - 352 с.
3. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. - T.: Fan, 1993. - 256 b.
4. Abu Ali Ibn Sino. Donishnoma. - T.: Fan, 1983. - 280 b.
5. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. - T.: O‘qituvchi, 1992. - 160 b.
6. Shomurodov J.O. Possibilities of cognitive technologies in providing students with artistic and aesthetic educational materials // Current research journal of pedagogics, 2022. - № 3(02). - P. 9-12.

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA, PEDAGOGIK INNOVATIKA

Xakimova M.F.
Innovatsion yondashuv asosida talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini takomillashtirish.....3
Кадирова Ф.Р.
Педагогические, психологические особенности обучения дошкольников иноязычной речи.....8
Юзликаев Ф.Р., Эшметова Д.З., Кочкарова Д.А.
Педагогика, искусственный интеллект, образование.....14
Djurayev D.U.
Turkiston o'lkasida mahalliy xotin-qizlar ta'limi tashkil etilishi tarixidan (XIX asr oxiri – XX asr boshlari).....18
Режаметова Н.
Педагогические стратегии изучения детской музыкальной литературы в непрерывном образовании.....23
Muslimov Sh.N.
Developmen og professional competence and modern approaches to preparing furure teachers for pedagogical active.....27
Saydjanov F.M.
Harbiy xizmatchilarda axborot-psixologik hurujlar ta'sirida stressni vujudga keltiruvchi holatlarning empirik o'rganilishi.....35
Abdurashidov A.A.
Ta'limni tashkil etishda milliy hunarmandchilikning tashkiliy shakllaridan foydalanish.....40
Саиджалалова С.М.
Технология «Языкового портфеля» как средство повышения качества языковой подготовки в условиях неязыкового вуза.....42
Abrorxonova K.A.
Kreativ yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtrish.....44
Shomurodov J.O.
Oliy ta'lim muassasalarida madaniy meros namunalaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari.....51
Isaqulov T.M.
Kollaborativ yondashuv asosida o'smirlar huquqbuzarligini profilaktika qilishninh ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlari.....55
Djumayeva S.A.
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-axloqiy dunyoqarashni rivojlantirishning pedagogik mexanizmini takomillashtirish.....61
Абдуллаева Н.М.
Развитие инновационной педагогики в системе высшего образования Узбекистана на основе концепции Университета 3.0.....62
Badritdinova M.B.
Bolalarda qo'rquv keltirib chiqargan tanglik vaziyatini korreksiyalash usullari.....68
Norkulova N.T.
Global raqamli transformatsiya davrida talabalar ma'naviy duyosini shakllantrishda affiliativ motivalarning ahamiyati.....76
Бекманова Ж.А.
Перспективные направления работы логопеда по коррекции речевых нарушений у дошкольников Узбекистана.....79
Sobirov Ya.E.
Yetuklik davrlarda talabalar ijtimoiy intellektni psixologik rivojlanish xususiyatlari.....84
Авлакулов Б.Р.
Роль прикладной психологии в профессиональном становлении студентов.....88
Умарова Н.Ф.
Развитие корпоративной культуры директоров дошкольных образовательных организаций.....93
Bayjanov F.B.
Pedagogik faoliyatda kommunikativ kompetentlikning o'rni va ahamiayati.....99
Муротмусаев К.
Социально-психологические детерминанты эмоционального интеллекта у лидеров студентов в условиях современного образования.....105
Kadirova N.A.
Talabalik davri shaxs rivojining muhim bosqicni sifatida.....106
Цай Н.В.
Проектирование и программирование методов управления развитием дошкольного и школьного образования.....108
Reyimberdiyev B.A.
Qoraqalpog'iston va Xorazm mintaqalaridagi oliy ta'lim muassasalarida transvormatsion yetakchilik uslubini tizimli amalga oshirishning kompleks modeli.....117
Choriyeva M.H.
O'zbekistonda STEAM ta'limning shakllanishi va rivojlanish tendensiyalarining amaliy texnologik tizimi.....120
Isroilova Z.H., Xusanova M.Z., Kilicheva K.
Modern approaches to organizing the educational process.....124
Yusupova M.E.
Interaktiv o'yinlarning ta'lim jarayoniga integratsiyasi.....126

GUMANITAR VA IJTIMOIY FANLAR TA'LIMI

Djurayev D.U.
Turkiston rus aholi farzadlari ta'limimimg tashkil etilishi (XIX asr ikkinchi yrmi – XX asr boshlari).....132
Norkulova D.
UDL yondashuvi asosida ingliz tilini o'qitishda o'quvchilarning leksik kompetensiyasini rivojlantirish va faolligini oshirish.....121
Зиявиддинова З.А.
Сравнительный анализ образовательных чат-ботов и возможности использования интеллектуального обучабщего агента в обучении русскому языку как иностранному.....126
Xodjayeva G.S.
Nofilologik yo'nalish talabalari ingliz tili yozma nutqini rivojlantrishning samarali metodlari: muammolar va echimlar.....155

TABIIY FANLAR TA'LIMI

Yadgarov T.G., Abduganiyeva O.I.
Zamonaviy ilm-fan rivojlanishda to'plam va ma'lumotlar bazasi asosiy tushunchalarining moslik integratsiyasi.....159
Jabbarov A.E.
«Chizma geometriya va muhandislik grafikasi» fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlarida savol-javob va muloqotning ahamiyati.....142
Turabova L.X.
Fizika ta'limida ma'naviy va intellektual tarbiyalashni rivojlantirishning o'ziga xos psixologik-pedagogik jihatlari.....144

SAN'AT VA JISMONIY MADANIYAT FANLAR TA'LIMI

Mirzaxalilov A.X.
Jismoniy tarbiya jarayonida kursantlarning jangovar tayyorgarlik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mexanixmlari.....150
Berdiyev B.Ch.
Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni milliy kurash bo'yicha tayyorgarlikni oshirishning innovatsion usullari.....156
Kaypov S.B.
O'smir eshdagi dzyudochilarni tayyorlashda

MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
NATIONAL PEDAGOGICAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN
NAMED AFTER NIZAMI
PEDAGOGICA
(scientific-theoretical and methodical journal)
№ 3

МИНИСТЕРСТВО ДОШКОЛЬНОГО
И ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
НАЦИОНАЛЬНЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА им. НИЗАМИ
ПЕДАГОГИКА
(научно-теоретический и методический журнал)
№ 3

“Pedagogika” jurnali “Pedagogik ta’lim” jurnalining vorisidir.

Mas’ul kotib – R.M.Medetova
Muharrirlar – M.X.Azizova, X.M.Tojiboyeva
Sahifalovchi – S.Pirmatov
Nashr ko‘rsatkichlari:
Yakka obunachilar uchun – 1076, Tashkilotlar uchun – 1077
Jurnal 2000-yildan boshlab chiqa boshlagan. Ikki oyda bir marotaba chop etiladi.
2026-yil 26-mart bosishga ruxsat etildi. 10-buyurtma.
Adadi – 80 nusxa. 30 bosma taboq. Ofset usulida bosildi.
Bichimi 70x100$^{1}/_{16}$ “Roboto” garniturasi.
Nizomiy nomidagi O‘MPU “Tahrir va nash” bo‘limida bosildi.
100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani,
Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy.